

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ.....	11-19
<i>Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич</i> ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ.....	20-29
<i>Каурова Malika Dautbay qizi</i> MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.....	30-33
<i>Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Hayitali</i> QO‘QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI	34-39
<i>Raupova Mushtariybegim Iloxomjon qizi</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA‘MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI TARIXSHUNOSLIGI	40-47
<i>Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы</i> ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825)	48-54
<i>Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой</i> НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ «АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО- ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ	55-64
<i>Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich</i> OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI	65-70
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR)	71-76
<i>Abdurasulov Akmaljon</i> TURKISTONDA MATVAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI.....	77-86
<i>Abatov Aydos</i> QORAQALPOG‘ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI)	87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Pirmatova Farangiz Ma‘rufjonovna</i> THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES.....	91-99
<i>Jumabayev Adilbek Bazarbayevich</i> WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL.....	100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдиев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI.....	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI.....	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ.....	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ.....	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA NAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Аида Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI.....	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javliyeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanoval Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF CRIMINAL-LEGAL PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS

Kholiknazarov Farhod Bazar oglu

Law Enforcement Academy
2nd year of correspondence master's degree

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the criminal-legal protection of intellectual property rights. The content of the norms related to the protection of authors' and related rights in the Constitution and the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan is revealed. Furthermore, a comparative analysis is conducted of the differences in approaches to establishing criminal liability for infringements of intellectual property rights in national and foreign legal systems. The article emphasizes that although criminal liability measures play an important role in protecting intellectual property rights, their punitive nature alone cannot fully resolve the problem. In this regard, the necessity of forming a comprehensive protection system and effectively applying civil and administrative measures in the field of intellectual property is scientifically substantiated. The study also examines the experiences of countries such as Georgia, Kazakhstan, Russia, Germany, Italy, and France, and presents conclusions and recommendations for improving national legislation.

Keywords: Intellectual property, criminal-legal protection, copyright, plagiarism, counterfeit products, criminal liability, civil-legal liability, comparative analysis, economic crimes, national legislation.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI

Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Sirtqi magistraturaning 2-bosqichi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat kodeksida mualliflik hamda turdosh huquqlarni muhofaza qilish bilan bog'liq normalar mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, milliy va xorijiy huquq tizimlarida intellektual mulkka tajovuz qilish uchun jinoiy javobgarlikni belgilashdagi farqli yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada jinoiy javobgarlik choralari intellektual mulk huquqini himoya qilishda muhim rol o'ynashi bilan birga, ularning faqat jazo berishga yo'naltirilganligi muammoni to'liq hal etmasligi ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan intellektual mulk sohasida kompleks himoya tizimini shakllantirish, fuqarolik-huquqiy va ma'muriy choralarni samarali qo'llash zarurligi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda Gruziya, Qozog'iston, Rossiya, Germaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk, jinoiy-huquqiy himoya, mualliflik huquqi, plagiat, kontrafakt mahsulotlar, jinoiy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, qiyosiy tahlil, iqtisodiy jinoyatlar, milliy qonunchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N56>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan

huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli [1].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'lik qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti to'g'risida"gi 2000-yil 28-apreldagi qo'shma qarorida "Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining obyektiv ifodalangan intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqi-intellektual mulki qonun bilan qo'riqlanadi va davlat tomonidan himoya qilinadi. Mutlaq huquq obyekt bo'lgan intellektual mulkdan boshqa shaxslar faqat huquq egasining roziligi bilangina foydalanishlari mumkin. Shuning uchun, intellektual mulkdan har qanday noqonuniy foydalanish bu huquqning qo'pol buzilishi hisoblanadi. Jumladan, tadbirkorlik subyektlarining intellektual faoliyati natijalarini o'zlashtirib olish Jinoyat kodeksining 149-moddasi bilan tavsiflanishi mumkin. Agar intellektual mulk obyektlari moddiy qimmatlikka ega bo'lsa, aybdorning qilmishlari talon-toroj sifatida baholanadi [2]" deb ta'kidlanadi.

Metodologiya. Ta'kidlash joizki, jinoiy yoki ma'muriy javobgarlik chorasini qo'llanishi huquqi buzilgan shaxsni qoniqtirmasligi mumkin. Huquq sohibini manfaatlarini himoya qilish uchun jinoiy yoki ma'muriy choralari qo'llanishi yetarli bo'lmaganda, kompleks himoya choralari ko'rilishi asosli hisoblanadi. Bunda muayyan huquqbuzarlikka baho berishda u jinoiy yoki ma'muriy qilmish sifatida baholanadi hamda jinoiy yoki ma'muriy chora qo'llash bilan birgalikda buzilgan huquqini tiklash yoki qoplashga qaratilgan moddiy-huquqiy xarakterdagi fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini belgilanadi.

Javobgarlik chorasini tanlash esa huquqbuzarlik xarakteriga bog'liq. Agar intellektual mulk huquqiga nisbatan mutlaq huquqni buzilishi jinoiy-huquqiy xarakterda bo'lsa, jinoiy javobgarlik chorasini qo'llaniladi.

Intellektual mulk huquqi O'zbekiston Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollarda buzilganda uni himoya qilish jinoiy-huquqiy tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida intellektual mulk iborasi ishlatilmagan. Ya'ni, Jinoyat kodeksining 7-bobi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 149-moddasi tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburan, shuningdek tafakkur mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilguncha yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ijod erkinligi, fikr, so'z, e'tiqod erkinligi mustahkamlab qo'yilgan. Shu munosabat bilan Jinoyat kodeksining 149-moddasi bilan bu erkinliklar bevosita jinoiy-huquqiy muhofaza ostiga olingan deb hisoblash mumkin.

Jinoiy javobgarlik chorasini qo'llash huquqbuzarga nisbatan qanchalik jiddiy salbiy oqibatni keltirib chiqarmasin, huquqi buzilgan shaxsni qoniqtirmasligi mumkin. Ya'ni, jinoiy javobgarlik chorasini qo'llash bilan buzilgan huquqni tiklash mumkin bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda jinoiy ishda fuqarolik da'vosi ham qo'zg'atiladi.

Barcha davlatlarda intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy qilmishdan himoya qilish dolzarb muammo hisoblanadi. Intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishda muayyan muammolarga duch kelinadi. Mazkur muammoga ko'plab dissertatsiya va boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Shunga qaramay intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy vositalar bilan himoya qilishni samarali deb bo'lmaydi. Bu boradagi qiyosiy-huquqiy

tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli davlatlarda intellektual mulk huquqini jinoyat-huquqiy vositalar bilan himoya qilish turli davlatlarda bir biridan jiddiy farq qiladi.

Tadqiqot natijalari. Eng ko'p uchraydigan holat bu intellektual mulkka bo'lgan mulkiy huquqlarni himoya qilish hisoblanadi. Masalan, kontrafakt mahsulotlar tovarlar uchun javobgarlikni belgilash. Nomoddiy huquqlar odatda fuqarolik-huquqiy usullar bilan muhofaza qilinadi. Bunday yondashuv intellektual mulk huquqini buzilishini iqtisodiy jinoyatlar sirasiga kiritishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasiga muvofiq mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, intellektual mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [3].

Intellektual mulk huquqiga tajovuz qilishni jinoyat kodeksining maxsus qismida boshqacha yondashuv ham kuzatiladi. Masalan, Gruziya Jinoyat kodeksida intellektual mulk huquqiga tajovuz qilish mulkiy jinoyatlar sanaladi.

Bunda nafaqat mulkiy huquqlar, balki mutlaq huquqlar ham muhofaza qilinadi. Ya'ni, mulkiy zarar keltirish bilan bog'liq bo'lmagan ko'chirmachlik (plagiat) uchun ham jinoiy-huquqiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Qirg'iziston Respublikasi qonunchiligida plagiat uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilmagan.

Intellektual mulk huquqiga tajovuz qilish MDH davlatlarining jinoyat qonunchiligida insonning konstitutsiyaviy huquqlariga qarshi (mualliflik, turdosh, ixtirochilik va boshqa huquqlar) hamda iqtisodiy faoliyat sohasidagi (individuallashtirish vositalariga bo'lgan huquqlar) jinoyatlar sirasiga kiritilgan. Masalan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VII bobida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar turiga kiritilgan.

Bunda bir tomondan intellektual mulk huquqlari nafaqat jismoniy shaxslarga, balki yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan barcha mualliflik huquqini buzilishi bilan bog'liq faqat jiddiy mulkiy zarar yetkazilgandagina jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Turli davlatlarda intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy muhofaza qilish doirasi bir biridan anchayin farq qiladi.

Eng ko'p uchraydigan yondashuv jinoiy-huquqiy muhofaza qilish faqat mulkiy huquqlarga nisbatan qo'llanishidir. Masalan, Gruziya va Qozog'istonda intellektual mulk huquqiga tajovuz qilish va uni jinoiy-huquqiy muhofaza ostiga olinishi ashyoviy mulkka yoki iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tenglashtirilgan.

Ba'zi rivojlangan davlatlarda ham shunday yondashuvni kuzatish mumkin. Biroq, Germaniya, Italiya va Fransiya kabi davlatlarda birinchi darajada nomulkiy intellektual mulk huquqi muhofaza ostiga olinishi belgilangan.

Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Moldova, Turkmaniston kabi davlatlarda plagiat uchun jinoiy javobgarlik mualliflik huquqi obyektining qiymati bilan bog'liq bo'ladi. Bunda birinchi navbatda muallifning mulkiy huquqlari himoya qilinadi.

Belarus, Gruziya, Tojikiston, O'zbekiston qonunchiligida plagiat uchun javobgarlik formal tarkibli norma bilan ko'zda tutilgan.

Ayrim davlatlarda hammualliflikka undash va mualliflikdan voz kechishga majbur qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Xususan, bunday qoida MDH davlatlarida Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Tojikiston, O'zbekiston qonunchiligida uchraydi.

Shuningdek, turli davlatlar qonunchiligidan intellektual mulkning turli obyektlarining jinoiy-huquqiy muhofaza qilish jinoyat kodekslarining turli bo'limlarida mustahkamlangan. Bu intellektual mulk obyektlariga tajovuz qilish jinoiy qilmishning turli obyektlari sifatida baholanishini bildiradi. Masalan, tovar belgilari yoki tijorat siri intellektual mulkning boshqa obyektlariga nisbatan jiddiyroq muhofaza qilinishini ko'rish mumkin [4].

Intellektual mulk huquqini buzgan uchun javobgarlik masalasi Rossiya Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida o'z aksini topgan. Shu bilan intellektual mulk huquqini buzish bilan bog'liq xatti-harakatlar jinoyat sifatida baholanadi. Bu turdagi jinoyatlar inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar sirasiga kiradi. Jumladan, mualliflik va turdosh huquqlarni buzish, ixtirochilik va patent huquqlarini buzish, tovar belgisidan noqonuniy foydalanish.

Intellektual mulk obyektlari tadbirkorlik sohasida fuqarolik muomalasida ishtirok etishini e'tiborga olsak, noqonuniy tadbirkorlik ham jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Ya'ni, intellektual faoliyat natijalarining nomoddiy xususiyati intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yengillashtirmaydi [5].

Intellektual mulk huquqini jinoiy-huquqiy himoya qilish sohasida Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 28-bobidagi «Kompyuter axborotlari sohasidagi jinoyatlar»ga alohida e'tibor berish lozim. Buning ahamiyati shundaki, jamiyatda axborotlashtirish jarayonlari kompyuter texnikasidan keng omma tomonidan foydalanilishi imkoniyati yaratilganligi bilan bog'liq. Ayniqsa bolalar, o'quvchi yoshlar, talabalar bugungi kunda kompyuter va internetdan keng foydalanadi. Mazkur ijtimoiy guruhlar vakillarining huquqiy ongi va madaniyati darajasi intellektual mulk huquqlarini buzilishiga keng yo'l ochib bermoqda.

Rossiya Jinoyat kodeksiga muvofiq quyidagi qilmishlar mualliflik va turdosh huquqlarni buzish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan: mualliflikni o'zlashtirib olish (plagiat); mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga zid ravishda foydalanish, shuningdek kontrafakt tovarlarni sotib olish, saqlash, tashish. Shuningdek, ixtirolar va patent huquqining buzganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ta'kidlash joizki, intellektual mulk huquqini buzganlik uchun jinoiy-huquqiy choralar ko'rish ko'plab mamlakatlarning qonunchiligidan joy olgan. Ayni paytda, jinoiy javobgarlik darajasi turli xil. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi yetarlicha mukammal emas va jinoiy javobgarlikni kuchaytirishni zarur degan talabni ilgari surib kelinadi. Bunday yondashuv ayniqsa AQSHda har yili e'lon qilinadigan «301 protsedura» va shu bilan bog'liq jarayonlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, jinoiy jazoni kuchaytirish mavjud muammoni uzil-kesil hal qilmaydi [6].

Intellektual mulk huquqlarini buzilishi darajasi va ko'lam turlicha bo'lishi mumkin. Bu ko'p jihatdan u yoki bu davlatning milliy qonunchiligining rivojlanganligi, sud-huquq organlarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Intellektual mulk huquqini buzilishi faqat

rivojlanayotgan davlatlarga xos bo'lgan muammo emas. Bunday huquqbuzarliklar rivojlangan davlatlarda ham rivojlanayotgan davlatlarda ham uchraydi.

Xulosa. Intellektual mulkni globallasuvi negizida asosan iqtisodiy manfaatlar yotishini e'tiborga oladigan bo'lsak, rivojlangan davlatlar intellektual mulk obyektlarini eksportyorlari sifatida rivojlanayotgan davlatlarni "iste'molchi" sifatida saqlab qolishdan manfaatdordir. Zero, rivojlanayotgan davlatlar bozoriga kirish iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar uchun muhim omildir. Ya'ni, intellektual mulk huquqini kuchli himoya qilish tizimining mavjudligi intellektual mulk obyektlarining qonuniy ayriboshlash bozorini rivojlanishiga turtki bo'ladi, deb hisoblanadi.

Shunisi e'tiborliki, rivojlangan davlatlar o'z mahsulotlarini ichki bozorga mutanosib narxlarda sotadigan mamlakatlarda "madaniy qaroqchilik" muammosi hamon dolzarb bo'lib, ushbu mamlakatlarda intellektual mulk obyektlariga nisbatan yuqori narxlarni belgilanishi intellektual mulk bozorida kontrafakt tovarlar savdosi saqlanib qolishiga va noqonuniy mahsulotlar aylanmasini o'sishiga olib keladi.

Albatta, kontrafakt tovarlar aylanmasi faqat shu muammo bilan bog'liq emas, uni negizi iqtisodiy omillarga borib taqaladi. Iqtisodiy muammolarni hal qilish faqat jinoiy ta'qibni kuchaytirish bilan hal qilib bo'lmasligi ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Bu intellektual mulk huquqini buzilishiga qarshi fuqarolik, ma'muriy va jinoyat qonunchiligi mavjud muammoning sabablariga emas, balki uni oqibati bilan kurashishga qaratilgan, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Tadbikrorlik faoliyati bilan bog'lik qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti to'g'risida"gi 2000 yil 28 apreldagi qo'shma qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025 y., 03/25/1084/0874-son)
4. www.ima.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentliginnig rasmiy sayti.
5. www.wipo.int – Butunjahon intellektual mulk tashkilotining rasmiy sayti.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiyot_infratuzilmasi

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).